


SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- yil yanvar-avgust oylarida SURXONDARYO VILOYATI xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 288,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 436,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

6 288,2 mlrd.
so'm

119,8 %

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

1 436,3
mlrd. so'mga

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6288,2	119,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	301,7	120,8
Moliyaviy xizmatlar	1282,8	125,4
Transport xizmatlari	1009,7	122,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	938,7	121,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	171,5	109,9
Savdo xizmatlari	2304,6	110,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	163,3	122,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	231,9	136,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	106,3	177,3
Ijara xizmatlari	172,7	154,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	166,4	124,8
Shaxsiy xizmatlar	175,1	119,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,2	117,1
Boshqa xizmatlar	130,0	138,8

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **36,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **39,0%** ini tashkil etdi.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**77,3 %**), ijara xizmatlari (**54,3 %**), boshqa xizmatlar (**38,8 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**36,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**25,4 %**), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (**24,8 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**22,6 %**) va transport xizmatlarida (**22,6 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**9,9 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim xizmatlari yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **133,6 %**.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar xizmatlari keskin pasayish kuzatilgan – **68,2 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.


Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-avgust



2021- y. yanvar-avgust



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

2021- yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **41,6 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **42,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yil yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **36,7 %** ni tashkil etib, bu esa **2 304,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 890,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **39,0 %** igagina to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

1 890,7

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

2 304,6

95,9

O'sish sur'ati, % da

110,0

2020- y.
yanvar-avgust




2021- y.
yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **83,2 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **83,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

2021- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1282,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **994,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **20,5** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **288,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **129,7** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,0 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,5 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,3 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

2021- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **301,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **120,8** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turi hajmi **246,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,1** % iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **107,7** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi


Xizmatlar hajmi

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **231,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **136,6 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar hajmi **165,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **35,2** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-avgust



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-avgust



2020- y.
yanvar-avgust



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Surxondaryo viloyati	6288,2	119,8	100,1
Termiz sh.	1668,3	123,3	108,6
tumanlar:			
Oltinsoy	258,4	118,6	91,7
Angor	285,0	116,3	84,2
Bandixon	147,0	117,5	93,9
Boysun	204,0	119,0	92,5
Muzrabot	290,7	117,9	85,6
Denov	778,7	123,8	103,3
Jarqo'rg'on	391,1	123,5	95,5
Qumqo'rg'on	395,3	116,4	101,2
Qiziriq	254,8	115,7	82,6
Sariosiyo	384,7	114,2	80,1
Termiz	278,8	114,6	81,0
Uzun	272,5	117,5	82,0
Sherobod	347,5	119,2	92,9
Sho'rchi	331,4	118,7	81,1


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **26,5 %** (2020- yil yanvar-avgust oylarida – **50,8 %**)ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,4 %** (2020- yil yanvar-avgust oylarida – **0,6 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 334,0
ming so'm

Hajmning
o'sishi

497,1
ming so'mga

2021- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 334,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 836,9** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **97,9 %** da qayd etildi.

117,5 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

16 881 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2 075 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

114,0 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


60,6 %

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **60,6 %**, sanoat **16,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,2 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,9 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,0 %** ni, sanoat **15,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,1 %** ni, qurilish **10,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**47,2 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **54,6 %** ga to'g'ri keldi.

